

JINOYATLARNING OLDINI OLIISH VA UNGA QARSHI KURASHISHDA TEZKOR-QIDIRUV FAOLIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI

Yuldashev Muhammadkarim

*O'zbekiston Respublikasi IIV Bosh boshqarma boshlig'i o'rinbosari,
yuridik fanlar nomzodi*

Annotatsiya. Maqolada jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatining o'рни va ahamiyati, ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi organlar strategiyasini mukammal prognozlash, ko'zlangan maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitga mos yo'l va vositalari, shakl va usullari taktikasini takomillashtirib borish haqida ilmiy-nazariy fikrlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: tezkor-qidiruv faoliyati, tezkor-qidiruv faoliyatining strategiyasi va taktikasi, oshkora va nooshkora usullar uyg'unligi prinsipi, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan kuch, vosita va metodlar.

Abstract. The article provides scientific-theoretical opinions on the role and importance of operational-search activities in the prevention and fight against crimes, excellent forecasting of the strategy of the bodies carrying out this activity, improving the tactics of ways and Means, forms and methods of the struggle to achieve the intended goal in accordance with certain conditions.

Key words: fast-search activity, strategy and tactics of fast-search activity, principle of combination of transparent and non-transparent methods, power, tools and methods used in the implementation of fast-search activities.

Dunyo bo'yicha har yili 437 ming kishining qasddan o'ldirilayotganligi, birgina odam savdosidan 3 milliondan ortiq kishi jabrlanayotganligi, korrupsiya natijasida rivojlanayotgan davlatlar o'rtacha 1,26 trillion, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari esa 132 million AQSH dollari miqdorida zarar ko'rayotganligi, har kuni 1 millionga yaqin shaxs zararli odatlari sabab kiberjinoyatchilikdan jabrlanayotganligi jinoyatlarning oldini olish, sodir etilgan jinoyatlarni tez va to'liq ochish muammolari jahon miqyosida nihoyat darajada dolzarb masala ekanligini ko'rsatadi.

Binobarin, davlatning huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan amalga oshirib boriladigan tezkor-qidiruv faoliyati ijtimoiy-huquqiy munosabatlarga bevosita ta'sir ko'rsatganligi bois, ushbu faoliyat mavhum, tushu-narsiz bo'lishi aslo mumkin emas. Aksincha, doimo aniq, ilmiy asoslangan, voqelikka mos va samarali bo'lmog'i lozim.

Huquqshunos olimlar A.K. Zakurlayev va Yu.S. Pulatovning ta'kidlashicha, «tezkor-qidiruv faoliyati, ilmiy bilimlar sohasi sifatida, huquqni muhofaza qilish organlari tezkor bo'linmalarining jinoyatchilikka qarshi kurashish amaliyotini teran tahlil qilish natijasi hisoblanadi.

U doimiy ravishda rivojlanib boradi. Uni tashkil etuvchi qoidalar jamiyatdagi o'zgarishlar, qonun hujjatlarining rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti munosabati bilan uning ko'pgina qoidalari qayta ko'rilishi ta'sirida yangilanadi, unda tabiiy o'zgarishlar yuz beradi» [6, 9 b].

Tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlarining jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishdagi o'рни va ahamiyatini yanada kengroq ochib berish maqsadida quyidagilar kompleks tarzda tadqiq etilishi va rivojlantirilishi talab etiladi:

birinchidan, tegishli hudud yoki mamlakat miqyosida mavjud kriminogen vaziyatni chuqur tahlil qilgan holda muayyan masala va muammolarning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish, natijalarini umumlashtirish hamda xulosalar chiqarish;

ikkinchidan, davlatning tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi bo'linmalari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi istiqbolli vazifalarni hal etishda ustuvor bo'lgan omillar va vositalarni aniqlash;

uchinchidan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish yo'llarini belgilash, bunda erishiladigan samaradorlik tezkor-qidiruv faoliyatini amalga

oshiruvchi barcha subyektlar faoliyatiga ham bevosita ta'sir qilishini yoki aksincha bo'lishini ham nazarda tutish;

to'rtinchidan, jinoyatchilikning oldini va unga qarshi kurashishda tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar strategiyasini mukammal ilmiy-nazariy prognozlash, ko'zlangan maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitga mos yo'l va vositalari, shakl va usullari taktikasini takomillashtirib borish.

Shu o'rinda, "strategiya" va "taktika" tushunchalarining o'zaro farqi, aloqadorligi yoki o'xshashligi nimada? "Bu tushunchalar ayni bir masalaning ikki xil ifodalanishimi yoki aksincha, ikki xil masalaning bir ifodada tushunishmi?", degan tabiiy savollar tug'iladi. Ushbu tushunchalarning mazmun-mohiyatini ochish uchun ayrim tarixiy shaxs va olimlarning bu boradagi fikr-mulohazalarini tahlil qilamiz.

Qadimgi Xitoy harbiy nazariyotchisi Sun Szi ta'rifi bilan aytganda: "Taktikasiz strategiya – bu g'alabaga juda sekinlik bilan boradigan yo'l. Strategiyasiz taktika – bu mag'lubiyatdan oldingi behuda urinish" [12]. E'tirof etish lozimki, ushbu so'zlarning etimologik (haqiqiy) ma'nosi harbiy soha bilan bog'liq bo'lib, yunoncha "strategiya" qo'shinni boshlab boraman [13, 573 b] degan ma'noni, "taktika" qo'shin tuzish yoki sarflash mahorati [13, 573 b] degan ma'noni anglatadi. Shunga qaramasdan, so'nggi o'n yilliklarda ushbu tushunchalar kundalik hayotimizda tobora ko'p qo'llanila boshlandiki, hatto sport, biznes, psixologiya, huquq va shu kabi boshqa sohalarda ham oddiy holga aylandi.

O'tgan asrning ikkinchi yarmida huquqshunos olim A.G. Lekar tomonidan "taktika" tushunchasining quyidagi ikki xil mazmuni ochib berilgan:

birinchisi, taktika – muayyan kuch, vosita, metod va usullar majmuasidan qat'iy tartib va aniqlik bilan samarali foydalanish imkoniyatini bersa;

ikkinchisi, jinoyatchilikka qarshi muvaffaqiyatli kurash san'ati sifatida zarur tadbirlarni o'tkazishda foydalaniladigan metod va usullarni doimiy takomillashtirib borish imkoniyatini yaratadi [8, 19 b].

Xuddi shunga o'xshash fikr V.V. Polovka tomonidan ham bildiriladi, ya'ni "taktika" tushunchasining semantik (ma'noga oid) tahlili uni ikki xil ma'noda qo'llanilishini ko'rsatadi: birinchisi, biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli idora etish

san'ati; ikkinchisi, biror-bir faoliyatni amalga oshirish uchun foydalaniladigan muayyan sharoitga mos yo'l va vositalar, shakl va usullar [10, 153 b; 3, 12 b].

Qadimgi Xitoy harbiy nazariyotchisining "sekinlik bilan boradigan yo'l" va "mag'lubiyatdan oldingi behuda urinish", shuningdek yuqoridagi ikki olimning "qat'iy tartib va aniqlik bilan samarali foydalanish imkoniyati" yoki "biror-bir faoliyatni muvaffaqiyatli idora etish san'ati" degan fikrlari, nazarimizda, amaliyotda ushbu ikki tushuncha o'zaro va uzviy aloqada bo'lgandagina samarali natija berishi mumkinligini ko'rsatadi. Yana shuni qo'shimcha ravishda ta'kidlash joizki, muayyan maqsadga erishish uchun qo'llanilgan taktika samarali natija bermasa, to'g'ri va istiqbolli rejalashtirilgan deb hisoblangan strategiya doirasida boshqa taktik harakatlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarni e'tiborga olib, shuningdek maxsus adabiyotlar tahlili asosida "strategiya" va "taktika" tushunchalari borasida quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

birinchidan, taktika – bu aniq harakat yoki bir necha aniq harakatlar majmui bo'lib, muayyan sohada, faoliyatda, yo'nalishda eng yaxshi natijaga erishish uchun yuzaga kelgan shart-sharoitni inobatga olgan holda mavjud imkoniyatlar (kuch, vosita va metodlar)dan maqsadga muvofiq holda foydalanishdir. Strategiya esa – to'g'ri va istiqbolli rejalar yo'nalishi;

ikkinchidan, strategiya bir necha taktikalardan iborat bo'lishi mumkin, shu bois, bir strategiya doirasida ikki yoki undan ko'p taktikalarni qo'llash imkoni mavjud;

uchinchidan, taktikada muddatdan ham ko'ra, muayyan shart-sharoit, imkoniyat va samarali natija muhimdir, strategiya esa mamlakat va uning muhim tarmoqlarini bir-uch yil (qisqa) yoki uch-besh yil (o'rta) muddatga yoxud besh yil (uzoq) muddatdan ko'p bo'lgan istiqbolli rivojlantirishning eng asosiy yo'nalishlarini belgilaydi, shuningdek maqsad va ustuvor yo'nalishlar, uzoq muddatli rejalashtirish, muqobil yechimlarni baholash, samaradorlikni anglash, eng maqbul variantni tanlash kabi boshqaruvni amalga oshirishning ratsional (oqilona) rasmiy modellarini yuzaga keltiradi.

Demak, biror-bir faoliyat sohasida boshqaruvni to'g'ri va istiqbolli rejalashtirishni strategiya sifatida [13, 573b; 8, 772b], ko'zlangan

maqsadga erishish uchun olib boriladigan kurashning muayyan sharoitga mos yo'l va vositalari, metod va shakllarini esa taktika sifatida tushunish mumkin.

Tezkor-qidiruv faoliyatining strategiyasi va taktikasini o'rganish hamda tahlil qilish, o'z navbatida, respublikamizda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini takomillashtirish uchun dolzarbdir. Zero, davlatning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun mamlakat miqyosida muayyan yo'nalishda ishlab chiqiladigan strategiya va unga hamohang ravishda qo'llaniladigan taktika konseptual ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda olimlar tomonidan tezkor-qidiruv taktikasining nazariy qoidalarini o'rganish uchun bir-biridan mustaqil bo'lgan quyidagi ikki asosiy yo'nalish ko'proq e'tirof etilmoqda [4, 26 b].

Birinci yo'nalish – jinoyatlarni fosh etishda foydalaniladigan kuch, vosita va metodlarni ta'minlab borish. Ushbu yo'nalishga kiradigan tezkor-qidiruv vaziyat, tezkor-qidiruv versiyasi (taxmini), tezkor taktik bashorat (prognoz) va rejalashtirish, strategik va taktik qarorlarni ishlab chiqish hamda qabul qilishning, taktik operatsiya va tezkor kombinatsiyalar nazariyasining, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning o'zaro, shu jumladan ushbu subyektlarni ma'muriy-huquqiy, jinoiy-huquqiy, jinoyat-protsessual, jinoyat-ijroiya faoliyatni olib boradigan davlat organlari bilan hamkorligining tashkiliy-taktik va umumiy qoidalari kabi masalalar hozirgi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ikkinchi yo'nalish – jinoyatlarni fosh etishda foydalaniladigan kuch, vosita va metodlarni takomillashtirish maqsadida tezkor-qidiruv taktikasi muammolarining nazariy jihatlarini o'rganish. Unga quyidagilarni kiritish mumkin: maxfiylik asosida ko'maklashish istagini bildirgan shaxslarni tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar bilan pulli yoki bepul hamkorlikka tayyorlash va jalb etish taktikasi; fuqarolar bilan tezkor aloqani o'rnatishga qaratilgan ishonchli munosabatlarni ta'minlash va o'tkazishning tashkiliy-taktik asoslari; nooshkora xodimni yoki maxfiylik asosida ko'maklashuvchi shaxsni jinoiy-kriminogen muhitga yoki tezkor ahamiyatga ega bo'lgan obyektga kiritish va u bilan doimiy aloqani saqlash taktikasi; nooshkora xodimlar tomonidan tezkor texnikani qo'llashning tashkiliy-taktik asoslari va boshqalar.

Tezkor-qidiruv taktikasida dolzarb ahamiyat kasb etadigan hamda jinoyatlarni fosh etishga mutanosib deb hisoblanadigan kuch, vosita va metodlar nimalardan iborat, degan savol tezkor-qidiruv nazariyasida muhim hisoblanadi.

Maxsus yuridik adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, birinchidan, tezkor-qidiruv faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishga bevosita mas'ul bo'lgan tezkor apparat va uning mansabdor shaxslarini (xodimlarini yoki shaxsiy tarkibini), shuningdek tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga maxfiylik asosida ko'maklashayotgan shaxslarni tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan kuch sifatida talqin etish mumkin.

Ikkinchidan, jinoyatlarning oldini olish, ularni aniqlash va fosh etish uchun foydalaniladigan tezkor (maxsus) texnika hamda tezkor hisob ishlari, shu jumladan xizmat hayvon (it, ot)lari [2] tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirishda foydalaniladigan vositalardir.

Uchinchidan, jinoyatlarning oldini olish va fosh etish uchun ahamiyatli bo'lgan holatlarni o'rganish, shuningdek jinoyatlarni tayyorlash va sodir etishga daxldor shaxslarni aniqlash maqsadida tezkor-qidiruv faoliyati amaliyotida qo'llashda foydalaniladigan maxsus usullar tezkor-qidiruv faoliyatining metodlari hisoblanadi.

Jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda foydalaniladigan kuch, vosita va metodlar, albatta, qonuniylik va qonun ustuvorligiga tayanishi shart. Zotan, mamlakatimizda qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish, huquqiy ta'lim va targ'ibotni tubdan yaxshilashga yo'naltirilgan keng ko'lamli choratadbirlar amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mazmun va mohiyatini tashkil etadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «biz o'z faoliyatimizda qonun ustuvorligi, tartib-intizom, inson huquq va erkinliklarini ta'minlashga alohida e'tibor beramiz. Yurtimizda barpo etilayotgan huquqiy-demokratik davlatda adolatsizlik bo'lishiga hech qachon yo'l qo'ymaymiz» [1, 22 b].

Zero, ushbu ishlarning pirovard natijasi fuqarolarimizning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, bozor islohotlari va iqtisodiyotni liberallashtirishni ta'minlashga xizmat qiladi. Binobarin, amalga oshirilayotgan har qanday islohot yoki

faoliyat turining huquqiy asoslari pishiq va puxta qilib yaratilsagina ko'zlangan maqsadga oson erishiladi.

Bu narsa, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ham o'z ifodasini topganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy qonunimizning 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqqa egaligi, hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi belgilangan, 31-moddaga muvofiq har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga egaligi mustahkamlandi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 81-moddasiga muvofiq, qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o'tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari ushbu Kodeks normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so'ng jinoyat ishi bo'yicha dalillar deb e'tirof etilishi huquqni qo'llash amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 9 va 10-moddalari bilan mustahkamlab qo'yilgan ayb uchun javobgarlik va javobgarlikning muqarrarligi prinsiplarini dastlabki tergov yoki sud organlari tomonidan ta'minlanishida tezkor-qidiruv tadbirlari natijasida olingan dalillar ishni to'g'ri hal etishda o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mazkur masalada B.Z. Zakirov va V.G. Karimovning fikrlari quyidagicha: «...tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan jinoyat protsessida foydalanish uchun ular uch bosqich (dalillarni to'plash, tekshirish va baholash bosqichlari)dan o'tishlari lozim. Ushbu masalalar O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 87, 94 va 95-moddalarida o'z ifodasini topgan» [5, 26 b].

Ayni vaqtda, yana shu narsani unutmaslik kerakki, tezkor-qidiruv faoliyati natijalarini surishtiruv organi, tergovchi yoki prokurorga taqdim etish quyidagi hollarda qat'iyan taqiqlanadi:

1) tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan tergov harakatlari yoki sud muhokamasida foydalanilganda tezkor-qidiruv faoliyatida ishtirok etgan subyektlar xavfsizligini ta'minlash imkoniyati bo'lmaganda;

2) tezkor-qidiruv faoliyati natijalaridan tergov harakatlari yoki sud muhokamasida

foydalanilganda tezkor-qidiruv tadbirlarini o'tkazishda foydalanilayotgan yoki foydalanilgan kuchlar, vositalar, usullar, manbalar, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning shtatdagi oshkor qilinmaydigan shaxslarning oshkor bo'lib qolish xavfi mavjud bo'lganda [11, 44 b; 7, 89–93 b].

“Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 9-moddasida ko'rsatib o'tilgan oshkora va nooshkora usullar uyg'unligi prinsipi tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlar tomonidan foydalanishini, bunday usullarning alohida xususiyati faoliyatning shart-sharoitlaridan kelib chiqqan holda belgilanishini hamda jinoyatchilikka qarshi kurashishda ushbu organlarning turli kuchlaridan, vositalaridan va tezkor-qidiruv tadbirlaridan foydalanishga kompleks yondashish zarurligini ko'zda tutadi.

Hayotiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jinoiy javobgarlikni kuchaytirish yoki jinoyat-protsessual vositalarini faol qo'llash orqaligina jinoyatchilikka qarshi kurashishning o'zi yetarli emas. Shu bois, jinoyatchilikka qarshi kurashishni samarali tashkil etishga faqat tezkor-qidiruv tadbirlari va tergov harakatlarining uyg'unligi bilan erishilishi mumkin, ya'ni jinoyat sodir etayotgan shaxslarning yashirin, niqoblangan va uyushgan harakatlariga nisbatan shunga mos bo'lgan yashirin tavsifdagi choralarni qarshi qo'yish lozimki, ushbu choralar jinoiy qilmishlarni o'z vaqtida, tezkor yo'llar bilan oldini olish va fosh etish imkonini bersin. Tezkor-qidiruv faoliyati aynan shunday keng maxsus choralar tizimiga egadir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, jinoyatlarning oldini olish va unga qarshi kurashishda davlatning vakolatli organlari tomonidan amalga oshiriladigan tezkor-qidiruv faoliyatining o'rni va ahamiyati kattadir. Shu bois, nazarimizda, davlatning tezkor-qidiruv faoliyati sohasidagi amaliyoti:

birinchidan, inson huquqlari va davlat suvereniteti g'oyalariga mos kelishi;

ikkinchidan, demokratiya va ijtimoiy adolat prinsiplariga javob berishi;

uchinchidan, xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari ustunligini tan olishi;

to'rtinchidan, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish maqsadlariga zid bo'lmasligi;

beshinchidan, fuqarolar tinchligi va milliy totuvligini ta'minlash kabi umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lishi zarur.

Foydalanilgan manbalar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz // Zamon bilan hamnafas diyor. 2016-yil 1-noyabrdagi Andijon viloyati saylovchilar vakillari bilan uchrashuvdagi nutqi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 22-b.
2. "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 23-moddasi.
3. Альферов В.Ю., Гришин А.И., Ильин Н.И. Правовые основы оперативно-розыскной деятельности: Учебное пособие / Под общ. ред. В.В. Степанова. – Саратов, 2016. – С. 12.
4. Дубоносов Е.С. Оперативно-розыскная деятельность: Учебник и практикум для СПО. – 6-е изд., перераб. и доп. – М., 2017. – С. 26.
5. Zakirov B.E., Karimov V.G. "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonunda inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi // O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining axborotnomasi. – 2013. – № 1. – B. 26.
6. Zakurlayev A.K., Pulatov Yu.S. Tezkor-qidiruv faoliyati: O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2014. – B. 9.
7. Karimov V.G. Tezkor-qidiruv faoliyati asoslari. – T., 2015. – B. 89–93.
8. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – М., 1999. – С. 772.
9. Основы тактики предотвращения преступлений органами охраны общественного порядка. – М., 1967. – С. 19.
10. Половка В.В. Тактика оперативно-розыскного обеспечения раскрытия и расследования похищения человека // Вестник Московского университета МВД России. – 2010. – № 9. – С. 153;
11. Po'latov B. Tezkor-qidiruv faoliyati, uning natijalaridan dalil sifatida foydalanishning qonuniyligi ustidan prokuror nazorati // Huquqiy tadqiqotlar jurnali. – 2017. – №7. – B. 44.
12. Трактаты о военном искусстве / Сунь-Цзы, У-Цзы: Пер. с кит., предсл. и коммент. Н. Конрада. – М., 2002.
13. O'zbek tilining izohli lug'ati: 80000 ga yaqin so'z va so'z birikmasi / Mas'ul muharrir A. Madvaliyev. – T.: «O'zbekiston nashriyoti» davlat unitar korxonasi, 2020. 3-jild. – B. 573.

